

O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Ahmedova Mo'tabar Husan qizi
ToshDO'ATAU O'zbek filologiyasi fakulteti
2-kurs magistranti +998901255907

Annotatsiya: *Maqolada ilmiy tushunchalar, badiiy vositalarning adabiyotimizda tutgan o'rnini haqida fikr-mulohazalar yoritilishiga harakat qilingan. Badiiy san'atlarning shakl va mazmun jihatdan qanday turlarga bo'linishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Adabiyotshunoslarimizning badiiy san'atlar haqidagi ilmiy izlanishlari keltirilgan.*

Abstract: *The article discusses the role of scientific concepts and artistic tools in our literature, types of artistic arts are explained according to the relation of form and meaning, the opinion of our literary experts about artistic arts, is presented.*

Kalit so'zlar: *Lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar, talmih, Atoullah Husayniy, Rashid-i Vatvot, tajvid.*

Keyword: *Verbal arts, spiritual arts, talmih, Atullah Husayni, Rashidi Watwat, tajwid.*

Adabiyotda har bir hodisaning o'z taqdiri va o'rnini bo'lgani kabi, badiiy san'atlarning ham o'z o'rnini va taraqqiyot bosqichlari bor. Xususan, badiiy san'atlar sohasida Sharq shoirlari butun bir mahorati va ijodiyoti bilan mehnat qilishgan, shu bilan birga amaliy va nazariy yondashmoqqa harakat qilgandir. O'zlarining ijodiy mahorati, taassurotlarini, ekzotikasini badiiy san'atlar vositasida ifodalagan. Ularning bunday mahoratlari ilmiy bade'ning rivojlanishiga xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Badiiy san'atlar adabiyotshunos olim-u fuzalolarimiz tomonidan shakl va mazmun mukammalligi uchun yordam beradigan:

- a) lafziy san'atlar
- b) ma'naviy (qorishiq) san'atlarga ajratilgan.

She'riy san'atlar olamini uning tarixiy, tadrijiy taraqqiyot bosqichlariga e'tibor qaratmasdan turib takomilini, o'rnini va rolini tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, ilmiy bade' sohasida birinchi o'rinda mohir shoirlar uning rivojlanish tadrijiga to'xtalib o'tgan. Bugungi kun adabiyotshunosligimiz ilmiy bade' sohasida juda kam rivojlangan. Lekin biz yoshlar bu sohani rivoj topishiga katta xizmat qilishimiz kerak. Badiiy san'atlarning rivoj topish jarayoni XV asrda, jumladan, Navoiy akademiyasi davrida shakllangan. Mana shunday namunalardan biri Atoullah Mahmud



Husayniyning badiiy ilmida, ya'ni nutqdagi badiiy vositalarga bag'ishlangan "Badoyi'u-s-sanoyi"(san'at yangiliklari) degan risolasida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. U XV asrning o'rtalarida Nishopurda tug'ilgan va 1513-yilning oxirida Mashhadda vafot etgandir. U asosiy tahsilni ya'ni oliy ma'lumotni Hirotda oladi. Uning butun biri lmiy pedagogik va adabiy faoliyati ham shu yerda o'tadi. Navoiy ham o'z tazkirasi bo'lmish "Majolisu-n-nafois"da ham Atoulloh Husayniy haqida quyidagicha yozadi: "Mir Atoulloh Nishopurdandur. Andin ilm tahsili uchun shahrg'a (ya'ni Hirotda) keldi. "Qofiya" va "Mutavassit" o'qur erdi. Donishmand bo'lguncha bir na'v mustahsan maoshqa muvaffaq bo'ldikim, andin ortiq bo'lmoqda mumkin ermas. Bovujudi donishmandlar, she'r-u muammovu san'atida dag'i mahorat paydo qildi. Muammoga ko'p mashg'ul bo'lur erdi. Halo saboq kasratidin anga avqoti vafo qilmas. Ammo san'atida kitobi tasnif qilib tur. "Badoyi'-i Atoyig'a mavsumdur. Emdi bayozlardan bordi, ma'lum emaskim, bu fanda harbiy hech kishi oncha jomi'u mufid kitob bitirish bo'lgan. Bovujudi ixtisoslashgan, maqlub-i mustaqil san'atindakim, andin mushkul romani san'at bo'lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakar dahona g'amxo'rlik nazarida,
Davron daniy-imug'ona darkash.

Aning tab'idiq qatga bu bayt dalil-i bastur. Faqir go'stohliq yuzidan Mirg'ader menkim, fazoyil-u kamoling'izg'a ko'ra darveshligingiz ham bo'lsa erdi. Bilurkim, musallam tutmasa, sobit qilurme, lzarur attin musallam tutar".[Husayniy.A. "Badoyi us-sanoyi"3-bet]

Bu asar fors tilida bitilgan bo'lib, uning bir necha qo'lyozma nusxasi bor. Shulardan biri 1974-yilda Dushanbeda "Irfon" nashriyotida Rahim Musulmonqulov tayyorlagan tojikcha nusxasi bo'lib, u to'liq emasligi, tekst ba'zi o'rinlarda "yengillashtirish" maqsadida o'zgartirilgani va xatosi borligi uchun asarning o'zbekcha tarjimasi Leningradda Saltikov-Shcherdin nomidagi saqlanayotgan qo'lyozma nusxasining fotokopiyasidan Alibek Rustam tomonidan qaytadan nashr ettirilgandir. Bu nusxada ko'p bo'lmasada ammo tushib qolgan ba'zi so'zlar ham bor, Musulmonqulovda ba'zi san'atlarning nomi noto'g'ri o'qilgan. Masalan, Shoir Atoulloh o'zini so'zboshida banda-yima'bud-i ma'niy, ya'ni ma'no sanamining quli degan. R.Musulmonqilov esa ma'niy so'zini mug'niy[Husayniy.A."Badoyi us-sanoyi"1.11-bet] deb o'qib, olimni boyituvchi sanamning quliga aylantirgan.Noshir ba'zan o'qilgan so'zlarga to'g'ri harakatlarni qo'yolmagan. Masalan: gird(atrof)-gard(to'zon)[Husayniy.A."Badoyius-sanoyi"1.102-bet], isho're(bildirish)-asho're(she'rlar)[Husayniy.A. "Badoyi us-sanoyi" 1.147-bet].Ba'zi o'rinlarda esa bir so'zni bir necha so'zlarga aylantirish holatini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Tig'-



inavzududa (yangi artilgan tig‘)-ikkinchi qismdagi so‘z nav-ziduda (qurtdan yangi)[Husayniy.A."Badoyi us-sanoyi"1.105-bet]. Ba‘zi birikma tarkibidagi so‘zlarning chegarasini topolmagan. Masalan: bor-isitam(sitam yoki)-bo Rustam. Bundan tashqari iboralar va gaplarning ham chegarasi to‘g‘ri aniqlanmagan, natijada matn tushunib bo‘lmas darajaga kelgan deb Alibek Rustamov asl nusxadan tarjima qilganlarini o‘z izohlarida keltiradi. Badiiy san‘atlarni o‘rganilish jihatini Atoullloh Husayniy uchga bo‘ladi:

1)birinchi san‘atlar: lafziy san‘atlar

2)ikkinchi san‘atlar: ma‘naviy san‘atlar

3)uchunchi san‘atlar: ham lafziy, ham ma‘naviy san‘atlar

1.Birinchi san‘atlarga, ya‘ni lafziy san‘atlarga: tarse‘, tajnis, sa‘j, munosabat, tashqari, tajziya, tardid, taattuf, tashri‘, zul qofiyatayn, tavshih, tarofuq, muqatta‘, e‘not, tavsim, mushajjar, muhokama.

2.Ikkinchi san‘atlarga, ya‘ni ma‘naviy san‘atlarga: tavjih, iyhom, idmoj, ta‘liq, tajohulu-orif, talmih, irsolu-l-masal, tariqasida, ig‘roq, g‘uluvv, ruju, iyjoz, iltifot, tafsir, muammo.

3.Uchunchi san‘atlarga, ham ma‘naviy ham lafziy san‘atlar bo‘lib, har ikkalasini ham o‘zida qamrab oluvchilar: mutobaqa, tadbij, husn-i taxallus, and, hall, tafviv, husn-i maqta‘, iqtibos, baroat-i istihlol, haqiqiy taqobul kabi san‘atlar. Badiiy san‘atlarning tarixiy taqdiri bu xalq og‘zaki ijodiga, mifologiyaga, dinga borib taqaladi. Chunki inson dunyoga keladiki, albatta, o‘zining hissiyotlariga ega bo‘ladi. Hissiyotlar shakllanar ekan, insoniyot, o‘z orzu istaklarini jimjimador tasvirlashga, xayolotidagi chiroyli hayotni qurishga harakat qilgan va harakat qilib kelmoqda. Mana shunday tasvirlarni ifodalashda she‘riy san‘atlarni badiiy tasvirda qo‘llash uchun astoyidil urunishgan.

Umrumning boshlarida, farog‘at yoshlarida bu kaminada dilrabo nazm-u san‘atkorona nutqqa tabiatan komillik bir mayl bor erdi va imkon boricha ushbu fan bilan mashg‘ul bo‘lar erdim.Tangriga hamdu shukrkim, ul asarlardan har nekim,zamonaviy sahifasida zohir bo‘lsa, ulug‘-u kichik qoshida manzuri maqbul bo‘ldi. Ammo ozgina fursat-u on o‘tishi-yu kichik bir vaqt-u zamon kechishi bilan ba‘zi vasvasalarni da‘f etish tashvishlariyu madrasalarda saboq berishishlari tufayli ul mayl poydevori bo‘shashib o‘shul yumush yemirildi, andoqkim yillarda o‘tub, ko‘ngul ul ish tegrasiga yovushmadi, ul boram an yozilib tartib berilgan ba‘zi varaqlar unutmang uyi burchaklarida to‘zon zarrasi yanglig‘ bekomenishon va e‘tiborsizlik change tuprog‘ida yer bilan barobaru yakson bo‘lib erdi. [Husayniy.A.Badoyi us-sanoyi.1.8-bet]. Badiiy san‘atlarga to‘xtalغانimizda, badiiy vositalarning maromida she‘riyatda qo‘llanishini, qanday farqlanishlar va



ifodalanishlarni birinchilardan bo'lib Rashiddin Vatvot, Ahmad Taroziyar mahorat bilan o'rganganliklari haqida Atulloh Husayniy o'z asarida ta'kidlab o'tganlar. Yana asarda ma'naviy go'zalliklar bayonida nomli bo'limining birinchi na'v qismda tavjih she'riy san'ati haqida quyidagicha keltiradi, tavjih-ani muhtamalu-z-ziddayn ham derlar va ul kalomni andog' ifoda etdiki, ikki turlicha ko'rinishda bo'lur va quyidagicha: Men o'z izlanishimni olib borgan holda, biz kabi o'quvchilar va talaba yoshlar nazarida talmeh she'riy san'ati faqat bir tushunchaning saqlanib kelinishi jihatidan tarixiy shaxslarga ishora sifatida o'rganib kelinadi, ammo Atulloh Husayniy talmehga faqat tarixiy shaxslar emas, balki tarixiy muhim voqealarga ham ishoratlar berilishini ta'kidlab o'tadi hamda ta'riflar keltiradi. Vahob Rahmonning "She'riy san'atlar" kitobida talmehga faqat bir tomonlama ta'rif keltirishini ko'rishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat ham o'zining darsligida badiiy san'at vositalariga ham alohida to'xtalib o'tadi va san'at o'zi keng tushunchadir deb unga bir qator misollar keltirib, u quyidagicha fikr keltiradi: adabiyot so'zini tuzukkina onglamoq uchun birinchi go'zal san'atlar degan so'zni ta'rif qilib o'tmoq lozim. San'at lug'atda hunar demoqdir: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. Biron bir kishi toboqchilikda, biri tikuvchilikda yaxshi ishlasa, shu ish uning san'ati bo'ladi. Bu ma'nodagi "san'at"dan tilakda boshqacha bo'lg'an bir turli san'atlar ham bor. Olaylik, san'ati tanbur cholish bo'lg'an bir kishini yaxshilab choling'an bir "Iroq" kuyi bu kishining san'atidir. Iroq kuyining yoxshiligi esa kishiga ma'naviy ta'sir etmak, uning miyasini to'lqinlantirmoqdir. Shuning uchun buning yoxshilig'iga, yoxshiliq emas, go'zallik deyiladi. Bunday san'atlarga esa "go'zal san'atlar" deyiladi. Oddiy san'atlarda tovar(material) tovush, ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqiy bo'ladi; bo'yovlar, chiziqalar bo'lsa, rasm bo'ladi; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik bo'ladi; tosh, yog'och, kirgich, ganj, turnoq bo'lsa, me'morliq bo'ladi; tan, mug'a harakatlarini esa o'yun(tans) bo'ladi; gap, so'z esa adabiyot bo'ladi. Ularning turlari quyidagichadir:

1. Musiqa.
2. Rasm.
3. Haykalchilik.
4. Me'morchilik.
5. O'yun(tans).
6. Adabiyot.

Go'zal san'atlarning mana shu oltita turi bir-biriga yaqinlashmoq e'tibori bilan ikki turkumga ayriladi va ularni ham Fitrat ikkiga bo'ladi. Birinchi turkumga: adabiyot, musiqa, o'yun(tans), ikkinchi turkumga: rasm, haykal, me'morliq kabilar. [Abdurauf F.2.20-21-bet]



Tildagi tovushdoshlik nutq go'zalligining manbalaridan biri bo'lib, bu narsa o'y, fikrni talab qiladi. So'zlarning ma'no munosabati anchayin murakkabligi asnosida har biri insonni o'ylashga majbur etadi. Tilning imkoniyati juda keng bo'lib, ham shaklga, ham mazmunga asoslangan holda badiiy vositalarni vujudga keltiradi. Badiiy vositalardan butun xalq foydalanadi, nutq san'atlari mohiyati nuqtai nazaridan butun bir nutqning o'zi singari ijtimoiydir. Nutq san'atlaridan mohirlik bilan foydalanuvchi so'z ustalarining ham asosiy manbasi bu xalq og'zaki ijodiyoti hisoblanadi. So'z ustalari doimo xalqdan va boshqa so'z usatlaridan o'rgangan badiiy san'atlarini bir oz boyitadi, ularga ishlov berib yangi va ba'zida undanda go'zal bo'lgan namunalar yaratadi. Abdurauf Fitrat o'z asarida buni juda sodda va aniq qilib ushuntirishga harakat qilgan. U tavz'e, mubolag'a, tazod she'riy san'atlarining kelib chiqish jarayonini "qalovini topsang qor yonar maqoli bilan sharhlaydi. Unda insonning qalbi doimo go'zallikka oshnoligi va shu bilan qandaydir yangiliklar yaratishni xohlaydi va u bunga muhtoj ekanligini aytadi, hamda bu maqolni oddiygina qalovini topsang o'tin yaxshi yonadi" misolida desak ham bo'lardi, ammo insonning ta'bidagi go'zallikka bo'lgan intilish bu gapni go'zallashtirishni xohlaydi, darhol "o'tin" so'zini "qor" so'zi bilan almashtiradi, natijada "qalovini topsang qor yonar" maqoli kelib chiqadi. Bu gap eshitganlarga yoqadi, qalov so'zi qor so'zi bilan uyg'unlashadi, shu bilan bir qatorda mazkur uyg'unlik gapga go'zal tus beradi. Bunday go'zal ifodani, albatta, kishi yo'qotmaslikka harakat qiladi va xalq buni o'z qalbida maqol qilib asrab yuradi. Birinchidan "qalov" bilan "qor" uyg'un, ikkinchidan qor bilan olov bir-biriga qarama-qarshi, zid, uchunchidan bo'rttirish va mubolag'a mavjud. Bunday xalq orasidagi jimjimador so'zlarga befarq qaramagan olimlar, katta qiziqish bilan bu hodisalarni tekshiradi, sistemaga soladi va alohida bir nom qo'ya boshlaydilar. Birinchi tovush uyg'unligiga: qalov-qor-tavz'e, Ikkinchi so'zlarning zidligiga qor-olov-tazod. Uchunchi qalov so'zining ahamiyatini bo'rttirish mubolag'a kabi badiiy san'atlarini hosil qiladi. Keyin bunday hodisalarni o'qituvchilar xalqining o'ziga, olimlar tavsiyasi shaklida ilmiy qaytadan yetkazadilar. Shu bilan ilm rivojlanadi, olim xalqqa, xalq olimga xizmat qiladi. Fitrat mana shunday misollarni keltirgan holda nutqni go'zal qiluvchi vositalarni "san'at" deb ataydi va badiiy san'atlarga nutqni go'zal qiluvchi vositalar yoki bo'lmasa nutq san'atlari deb ta'rif beradi, bular: ishtiyoq, tavze, tajnis, mubolag'a va boshqalar. Lekin biz yuqorida Atoullah Husayniyning asarida badiiy san'atlar turi 3 ga bo'linganini aytib o'tganidik. Mana shunday tafovutlar badiiy san'atlarning manbalarda turlicha kelishiga ham ishoradir. Atoullah Husayniy o'z asarida badiiy vositalarga anchayin chuqurroq yondoshganligini, ko'plab ma'lumotlar keltirganidan va tartiblab chiqqanidan ham bilishimiz mumkin. U ham



har bir badiiy vositalarga urg'u berar ekan, har bir badiiy vositaga alohida bir ta'rif berib chiqadi va misollar bilan keltiradi. Ma'naviy go'zlliklar bayonida bo'limida: "Ma'naviy go'zalliklar bayonida san'at turi ham bu ikki na'vdur. Birinchi na'vi ya'ni turi arab fusaholariga ham, ajam shuarolariga ham san'at sifatida kiruvchi badiiy vositalar, ikkinchi turi esa faqat ajamliklar uchun badiiy vositaga kiruvchilar." Birinchi na'v: Tavjih-uningi kkinchi nomi muhtamalu-z-ziddayn ham derlar. Ikki turlicha ko'rinishni ifodalamoq degani. Rashid-i Vatvot deptur: muhtamalu-z-ziddayn, bu san'atni zul vajhayn ham derlar, ul andoqkim, shoirlar bir baytni keltiradi va unda ikki xil ma'no aks etadi. Tavjih lug'atda yuz o'girmak ma'nosida keladi. lyhom-ikkinchi nomi tavriya ham derlar. Rashid-i Vatvot ani taxyil ham deb ataydi. Uning ma'nosi shundayki, kalomda bir lafz keltiriladi, undan ikkita ma'no anglashiladi, birinchi ma'nosini topish qiyin emas, ammo ikkinchi ma'noni topish qiyinroq bo'lib, maqsad ham ana shu yiroq ma'noni anglamoqdir. Bu san'at ham ikki turga bo'linadi: a) tavriya-yi mujarrad b) tavriya-muvashshah. Masalan, Lutfiyda Chin so'zla xito xo'blarig'a ne bo'lursan?

Tajohulu-l-orif-so'zlaguncha nimanidir bilur, ammo bir nuqta ya'ni so'z bilan o'zini bilmagandek ko'rsatur. "Miftoh" sohibi bu san'atni suqu-ma'lum masofa g'ayrih, ya'ni ma'lum so'zni noma'lum o'rinda qo'llash deb keltiradi, ammo men buni tajohul deb atashni sevmayman deb, oyati karimalardan keltirib, sababini tushuntirib beradi. Tajohul asosidagi nuqtalar ko'p deb baytlar keltiradi:

Bod-bahor ast yo nasim-l abirast,
Yo asari gard xoki poydevori vazir ast.

Ma'nosi:

Bu bahor yo'limizni yo abir nasimimi,
Yo vazir oyog'i ostidagi tuproq changini asarimi?

Talmih-kalomda mashhur qissa, mashhur she'r, mashhur maqolga ishorat etmaktin iborat deya, 3 jihatdan izohlaydi. Birinchidan qissaga ishorat quydagicha keltiradi:

Nur-i chashmam, begul-l ro'yat bo'ston hol-i man,
Gasht ham chun xolat-l Ya'qub dar baytu-l-hazan.

Bu baytda Yusuf qissasiga ishorat keltirilgan bo'lib, baytning tarjimai quyidagicha holda keltiriladi:

Ey ko'zim nuri, yuzing gulisiz bo'stonda holim
Ya'qubning g'am uyidagi holatiga o'xshab qoldi.

Ya'qub o'z o'g'li Yusufdan ajralganlar g'am chekib o'tirgan kelasi baytu-l-hazan, baytu-l-huzn(g'am uyi) kabi iboralar bilan ifodalanadi va ayriliqqa uchragan



har bir g'am egasining uyi ham o'shanga tashbihan shunday ma'no anglashiladi. Ikkinchi jihatdan esa she'rga ishoralar quyidagicha beriladi, Bayt:

Pesh-i man hosil-i kavnayn buvad chun yak jav,
Mazra'-l charx chiro binamu dos-i mah-inav?!

Ma'nosi:

Menga ikki olamning hosili bir arpachilikdir, shuning uchun osmon ekinzoriyu yangi oy o'rog'ini ko'rib nima qilaman. Uchunchi maqolga, nisbatan ishora esa quyidagicha tasvirlanadi:


Ashkro dardiy daparvardam base oxirmaromida
Kardrusvo-yi jahone, dod nekiy ro jazo.

"Izoh" sohibi va "Tibyon" sohibi maqollarni talmihga kiritmapturlar, Alloma-yi Sheroziy depturkim, ulamolarining ba'zilari kalomda maqol so'zlarni o'zlashtirib aytdilar va maqolni anga borlig'icha ham kiriturlar. Alloma Taftazoniy derlar: bu san'at talmih bo'lib, "l" tovushi "m" dan oldin kelur. Ammo talmih ("m" tovushi "l" dan oldin) bir narsani keltirmak, anda malohat-u zarofat bo'lg'ay. Bu ikkalasi ikki xil san'at bo'lib, ularni alloma-yi She'roziy har ikkisini bir deb anglab xatoga yo'l qo'ygandir. Bu xato yana takrorlanib, ba'zilari buni bir mazhab qilib olgan deya o'zqarashlarini keltiradi. Yana shunday ma'lumotlar keltiriladi: bilgilkim talmihning ba'zisi lug'z(chiston)ga o'xshaydi va Shamsi Qays talmihga o'zgacha ma'no bergandir. Talmih lug'atta bir nimaga nazar solmoq va bu san'atta she'r va andin o'zga nimalarga ishorat etilgani uchun talmih deb atalur. [Husayniy.A. "Badoyi us-sanoyi". 1.134-bet]. Bundan tashqari ijodkor yana ko'plab she'riy san'atlarni alohida tasnif qilib, ma'nolarini sharhlab chiqqandir. Ummuman olganda badiiy san'atlar badiiy adabiyotimizning go'zal jihatlarini ochib beruvchi vositalardan hisoblanadi. Har bir badiiy san'atning o'z jilosi va mazmun mohiyati bordir. Ilmi bade' va ilmi balog'aning rivoji uchun badiiy san'at vositalari muhim vazifa bajargan va bajarib kelmoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimizning qirralarini badiiy vositalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Klassik adabiyotning har bir qirrasiga ular tomchi-tomchi bo'lib singib ketgandir. Butun bir xalq og'zaki ijodidan (folklor)dan tortib keyingi davrlar Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Yugnakiy, Yassaviy, Rumi, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqatlar ijodidan toki bugungi kun zamonaviy adabiyotimizning qalbiga mukammal jipslashib ketganini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atoullloh Husayniy. "Badoyi us-sanoyi". (1981). (Forschadan A. Rustamov tarjimai). Toshkent. "O'zbek tili va adabiyoti" nashriyoti.





2. Abdurauf Fitrat. “Adabiyot qoidalari”. (1995). Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti.

3. Rahmonov, V. (2020). She‘r san‘atlari. Toshkent. “Sharq” nashriyoti

4. Rajabova, Burobiya Tangirovna. (1996). O‘zbek klassik she‘riyatida tamsil san‘ati. Dissertatsiya. Toshkent

